

84
M95

SHIHUR QOSHIQLAR KUTUBXONASI

MUQIMYIY FURQAT
Qy chehrasi
to'bonim



MASHHUR QO'SHIQLAR KUTUBXONASI

MUQIMYIY • FURQAT

Py chehrasi tobonim



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
"O'ZBEKISTON"
2016

UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(50)6

M 95

To'plovchi va so'zboshi muallifi:

*Ergash OCHILOV,
filologiya fanlari nomzodi*

Muqimiy

M. 95. Ey chehrasi tobonim/Muqimiy, Furqat.
E. Ochilov. – Toshkent: «O'zbekiston»,
NMU, 2016. – 264 b. (Mashhur qo'shiqlar
kutubxonasi)

Muqimiy va Furqat ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin sahifalarini tashkil etadi. Bu tom ma'nodagi xalq shoiriylari qalamidan chiqqan she'rlar hali siyohi qurimay turib she'riyat shunavandalari tiliga tushgan, hofizlar tomonidan kuyga solinib, asrlar davomida sevilb ijro etilib kelgan. Ushbu to'plam xalq mehnat-u muhabbatini qozongan ikki zabardast so'z san'atkorining muxlislar ko'nglidan joy olgan mashhur qo'shiqlari asosida tuzildi.

UO'K: 821.512.133-1
KBK 84(50)6

ISBN 978-9943-01-940-9

© E. Ochilov, 2013, 2016
© «O'ZBEKISTON» NMU, 2013, 2016

МУҚИМИЙ

DILORBAR QO'SHIQLAR

Muqimiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. O'z davrida Muqimiydan mashhur shoir bo'lmagan: g'azal, murabba' va muxammaslari qalamidan chiqishi bilan siyohi qurimay turib hofizlar soziga tushgan, davralarda sevib o'qilgan, qo'lma-qo'l bo'lib, og'izdan og'izga o'tgan. Uning qo'shiq bo'lmagan she'rlari kam. «Ko'nglim sandadur», «Soyaydurman», «Yakka bu Farg'onada», «Giriftormen yana», «Dog'men», «Yodimga tushiti», «Qilma ko'p», «Navbahor», «Ey chehrasi tobonim» kabi o'nlab she'rlari milliy qo'shiqchilgimizning olin fondidan joy olgan.

Akademik shoir G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda, «o'zbek xalqining mo'tabar shoiri»¹ Muhammad Aminxo'ja Muqimiy 1850-yili Qo'qonda novvoy oilasida tug'ildi. Uning ota-bolalari asli toshkentlik bo'lib, Qo'qonga borib turg'un bo'lib qolishgan. Onasi Bibtoysa ham otasiga o'xshab hayot taqozosi bilan Qo'qonga kelib qolgan xo'jandlik Saydolim Nodirshayx de-

gan kishining qizi. U boshlang'ich ma'lumotni mahalla maktabida olgan bo'lsa-da, zamonasining shoir va fozil farzandi bo'lib yetishishida oilaning roli katta bo'ldi. Xususan, onasi Bibtoysa o'z davrining o'qimishli, adabiyotga oshno ayollaridan bo'lib, eski kitoblarni ko'p o'qir, ko'plab ertak va naqlar, rivoyat va afsonalar, she'r-u g'azallarni yod bilat va davralarni qizitar edi. Shuning uchun ham Qo'qon ayollari uni sevib va ekrallab, Xumorbibi deb ataganlar. U qatnashgan davralar fayzli va zavqli o'tar, u bormagan yig'irlarda darhol o'rni bilinar edi. Bo'lajak shoir qalbiga adabiyot ishq, she'r shavqini aynan onasi solgani shubhasiz.

Tirishqoq va ziyrak Aminxo'ja Qo'qondagi mashhur «Hokim oyim» madrasasida o'qib yurgan vaqtidayoq she'rlar mashq qilishni boshlagan edi. Taniqli adabiyotshunos G'ulom Karimov shoir ijodini sinchiklab tekshirish asosida Muqimiy 12-13 yoshlaridan she'r yozish bilan jiddiy shug'ullana boshlagan degan xulosaga keladi².

Keyin u ilmini kamolga yetkazish maqsadida «1872-1873-yillarda Buxoroga borib, «Meh-tar oyim» madrasasida tahsilni davom ettiradi»³. Buxoroda o'tkazgan yillari uning shoir sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Qo'qonda Na-

¹ *G'afur G'ulom*. Muqimiy // Asarlar. O'n jildlik. 8-jild. Adabiy-tanqidiy maqolalar, ochirklar, portretlar. – Toshkent, 1976. 32-bet.

¹ *Karimov G.* O'zbek demokrat shoiri Muqimiy (Soziboshi) // Muqimiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1958. 13-bet.

² *Abdug'afurov A.* Muqimiy // Buyuk siymolar, allomalar. Uch kitobdan iborat. 3-kitob. – Toshkent, 1997. 96-bet.

voly, Fuzuliy, Mashrab, Amiriy asarlarini mutolaa qilib, ulardan mahorat sabog'ini olgan Muqimiy bu yerda fors-tojik adabiyoti bilan chuqur tanishadi: Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil kabi Sharq so'z san'atining zabardast namoyandalari ijodidan bahramand bo'ladi. Muqimiy bu shoirlardan bir umr o'rgandi, ulardan ta'sirlandi, ularga ergashdi. Bu ta'sirni uning butun ijodida, xususan, uning g'azallariga yozgan tatabu'larida, bog'lagan muxammalarida ko'rish mumkin. U Furgat, Zavqiy, Almaiy, Kamiy, Visoliy, Umidiy, Muntazir, G'oziy, Muhayyir kabi zamondoshlarining ko'plab g'azallariga ham muxammalar bog'lagan.

Xalq orasida shuhrati baland bo'lishiga qaramay, Muqimiy bir umr faqirlikda yashagan. O'z davrining fozil kishisi ekani, xushxat xatrot, tahriri mukammal bo'lishiga qaramay, «Hazrat» mad-rasidagi kichik bir hujrada yashab, xatrotlik va xatnavislik qilib kun kechirgan. «Uning ko'pincha hujralarda g'azallar yozib, xat mashq qilib, kitoblar o'qib o'tirganini ko'rish mumkin edi. Bo'sh vaqtlarida Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent taraflarida aylanib yurar edi. U xatni rasm darajasida go'zal yozar edi. Forscha, arabchani mukammal bilan edi»¹.

¹ *G'ofur G'ulom*. Muqimiy//Asarlar. O'n jildlik. 8-jild. Adabiy-tanqidiy maqolalar, ocherklar, portretlar. – Toshkent, 1976. 31-bet.

Qo'qonda Muqimiy, Furgat, Zavqiy, Muhayyirlar ishtirokidagi bir adabiy to'garak faoliyat ko'rsatib, uning dovrug'i uzoq-uzoqlarga ketgan edi. Furgat o'z «Esdaliklar»ida bu davraga boshqa she'riyat muxlislari havas qilishi, shnavandalar ularning she'rlarini so'rab kelishi haqida yozadi.

Muqimiy adabiy merosi taxminan 10 ming misrani tashkil etib, an'anaviy va hajviy yo'nalishdagi she'rlardan iborat. An'anaviy she'rlarida Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Amiriy an'alarini davom ettirib, yangi ijtimoiy sharoitda ularni rivojlantirgan. Shoir lirikasida g'azal, muxammas va murabba' janrlari yetakchi o'rin tutadi. Muqimiy Mashrabdan keyin murabba' va muxammas janrlari taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Ta'bir joiz bo'lsa, Mashrab va Muqimiy tufayli bu ikki janr mumtoz she'riyatning g'azaldan keyingi eng mashhur janrlariga aylandi. Xususan, murabba' janriga Muqimiy yangi hayot bag'ishladi, deyish mumkin. Shoirning xalq yo'lida yozilgan soddal til, ravon uslubdagi hasos va o'ynoc'i murabba'larning deyarli barchasi qo'shigga aylanib, xalq mehr-u muhabbatini qozondi. Muqimiy she'riyati chuqur hayotsevarlik ruhi bilan sug'orilgan, hasrat, shikoyat ohangi ustuvor she'rlarida ham nekinlik kayfiyati barq urib turadi.

Xalq ichida ko'p yurgan, katta-kichikning suhbatini olgan Muqimiy o'z she'rlarida xalqona ob-

razli iboralar, tesha tegmagan nozik lutfilar, o'tkir qochirimlar, ilmoqli gaplar, pardali ishoralardan mahorat bilan foydalandi. Bu narsa sho'r asarlarining xalqchil, o'qimishli, ta'sirchan chiqishinigina ta'minlab qolmay, badiiy yuksakligini ham ta'minlaydi.

Ergash OCHILOV

YAKKA BU FARG'ONADA

Oshiq emasman yuzingga yakka bu Farg'onada,
Zohid istar Ka'balarda, barhaman butxonada.

Kinga dod aylay bu bedoddingni man, ey sang'il,
Oshno bo'ldim desam, ko'nglung seni begonada.

Sham'i ruxsoring yonar mahfilda' gul-gul kechalar,
Bormudi qasding magar kuydirgali parvonada.

Man' etib, ey muhtasib², har dam boshimga
kelmag'il,

Bo'lsa, naylay, mast bo'lmay, maskanim mayxonada.

G'ofilo, fikr aylag'il uqboni rohat istasang,
Shodling' ko'z tutnakim, bo'lmaydi mehnatxonada³.

Manzilimni so'rma, ey mag'ruri mulki dastgoh⁴,
Dahr – sahroyi junun, uy bo'lmag'ay devonada.

Bulbul aylar nolalar yolg'iz dema, ey gul'uzor,
Chug'zdek⁵ qilg'ay Muqimiy ham navo

vayronada.

¹ Mahfil – majlis, anjuman, bazm.

² Muhtasib – islom marosimlari, shariat qoidalarini va jamoat tartibini nazorat qiluvchi amaldor.

³ Mehnatxona – musibat uyi, ya'ni dunyo.

⁴ Dastgoh – 1) qudrat va imkoniyat, davlat, boylik; 2) amal, martaba.

⁵ Chug'z – boyo'g'il, boyqush.

YANA

Sho'xi parivashg'a giriftormen yana,
Vashin ko'ranga shom-u sahar zormen yana.

Ra'nolar ila kam tobim, jaf o chekib,
Naylay, birovnig ishqida bemormen yana.

Aylab hamisha xo'blara¹ uyquni harom,
Bir nozanin yodida bedormen yana.

Bozori shabda² qaysi tarafdin, debon kelur,
Hayron yo'lida diydalarim chormen³ yana.

Xor etti ishq har guli humrog'a⁴ bog' aro,
Ta'n etma, boz⁵ bir gul uchun xormen yana.

Oxir sharob tut qadahe, soqiyo, bu kun
Davringda saxt⁶ lohas-u xummormen yana.

Nogah, Muqimiy, uchrasa, aql-u hushim ketib,
Ko'rgan yerimda surati devormen yana.

¹ Xo'blar - 1) yaxshilar; 2) go'zallar.

² Bozori shab - bozor kechasi.

³ Diydalari chor - ko'zlari to'rt, intizor, mushoq.

⁴ Humro - qizil, qizillik.

⁵ Boz - yana, tag'in.

⁶ Saxt - qattiq.

SOG'INIB

Mehri ruxsoringga, jono, zordurman sog'inib,
Ko'rgali mushoq, dilafgordurman sog'inib.

Subhi vaslim furgating shomi bilan

Qon to'lib ko'zga, shafaqosordurman¹ sog'inib, ^{topdi zavol,}

Xasta-yu ma'yus-u bemor ayrilib g'am kunjida,
Mustahiq² pursish³ bisyordurman sog'inib.

Yodima sozi dutor-u ruhafzo⁴ xonishing
Tushsa har soat batarroq zordurman sog'inib.

Xoh bovar qilma-qil, san ham musulmonsan agar,
G'uncha yanglig' diydasi xunbordurman⁵ sog'inib.

Ashki ol-u⁶ rangi zardindin⁷ qiyos etsang bo'lur -
Hojati guftor emas, izbordurman sog'inib.

Hasratingning nazmini yozib Muqimiy safhaga,
Kor-u borim⁸ dam-badam takrordurman sog'inib.

¹ Shafaqosor - shafaqqa o'xshash, sariq aralash qizil.

² Mustahiq - loyiq, munosib, sazovor.

³ Pursish - so'rash, so'roqlash.

⁴ Ruhafzo - jonbaxsh.

⁵ Xunbor - qonli, qon to'kuvchi.

⁶ Ol - qizil.

⁷ Zard - sariq.

⁸ Kor-u bor - ishlar, mashg'ulliklar.

FARG'ONA NASRULLOSI

Ko'nguni g'uncha yanglig' tah-batah¹ qon
ayladig-ketding,

Xaloyiq ichra ma'yus-u parishon
ayladig-ketding.

Otib tiyri² jafod dillarga, har yondin
solib raxna,

Nachuk sultonki, tan mulkini vayton
ayladig-ketding.

Judolig' kunida yetmasmudi hasratda
qolg'onim,

Yana sha'nimga bir ortuqcha bo'hton
ayladig-ketding.

Agar tosh bo'lsa ham, ko'ngling erib, lozim edi
rahming,

Ko'zicha dushmanim yer birla yakson
ayladig-ketding.

Avaldin oshnolig' qilmasam-chi, oxiri tashlab,
Umidim shunidikim, zor-u hayvon
ayladig-ketding.

Duoyi davlatig ko'zlar Muqimiy, garchikim
mahrum,

Bo'lakka ne'mati vasling farovon
ayladig-ketding.

¹ Tah-batah – qavatim-qavat.

² Tiyr (tir) – o'q.

KO'ZLARING

Surma qo'ymay muncha ham, jono, qarodur
ko'zlaring,

Har biri jon qasdig'a boqqan balodur
ko'zlaring.

Oshno begonalarga, bir umr xush-xush nigoh,
Oshnolarga g'araz nooshnodur ko'zlaring.

Bogmag'ay oshiqqa sahvan¹ ham qiyo, faryodkim,
Rasnu oyini magar javr-u jafodur ko'zlaring.

Ohuyi Chin² ko'rdi-yu, shahlolig'idin qon yutub,
Rashkdin ovorai dashti Xitodur ko'zlaring.

Nargisi mastingdin uzmaq mumkin ermas
diydani,
Yoki mujgon³ davrida mehriyodur ko'zlaring.

Intizor aylab o'zi ham, ajrig'a oyinasi,
O'z jamolini ko'rolmasdan adodur ko'zlaring.

Qumri sarv qadd-u, bulbul gul yuzingning
volasi⁴,

Men Muqimiyga hamisha muddaodur ko'zlaring.

¹ Sahvan – yangilashib.

² Chin – Xitoy.

³ Mujgon – kiptik, mija.

⁴ Vola – oshiq, matru.

BAYOT – V¹

Dilda to, ey sarvi ra'no, mehringiz,
Menga bo'ldi dafi savdo mehringiz.

Yo'lingizda kozalar² qilmay netay,
Yusufim qildi Zulayxo mehringiz.

Kuyimoq o'ldi, oh, korim aytilib,
Tushkan erkan dilga bejo mehringiz.

Telba-yu devonalardek oqibat,
Ko'chalarda qildi shaydo mehringiz.

Yig'lar erkan, bul'ajabkim, gon mudom
Har kishikim qilsa da'vo mehringiz.

Bog'da gul ko'ksida qat-qat dog'lar,
Bir emasdur menda tanho mehringiz.

O'ldurrur hijronlaringiz tobakay³,
Bormu oxir hech aslo mehringiz.

Bersa zohtid taqvi-yu toat bilan
Menga basdur tuhfa fardo⁴ mehringiz.

Yo'q ekan, jono, Muqimiyisizki, siz
Ayladingiz sayri sahro, mehringiz.

¹ Bu qo'shiq «Mehringiz» nomi bilan ham ijro etiladi.

² Kozal – kupa, chaya.

³ Tobakay – qachongacha.

⁴ Fardo – erta.

SHAHNOZ

Kishini jonidek jisimimdagi ruhi
ravonim¹ siz,
Qachon mumkin judoligda tiriklik,
chunki jonimsiz.

Jahon bozorida sude² topar har kim
mato'idin,
Meni naqdi muhabbatdin topib, qilgan
hayonimsiz³.

Muolijidin⁴ ko'rub nabzim⁵ hakimo,
yozma «Qonun»cha,
Bu hikmat birla bilmayisiz nadur dardi
nihonim, siz.

Labingizmu, desam, shirin-shakardin,
achehig'i kelgan
Urushjo⁶, tundxo⁷ siz⁷, ko'p yomon
nomehribonimsiz.

Xaloyiq masti sahboyi junun⁸, g'avg'oyi
mahshardur,
Ochib yuz, pardalardin jilva qilgan
begumonim siz.

¹ Ruhi ravon – jon, ruh.

² Sud – foyda, manfaat, naf.

³ Hayon – savdodan kelgan foyda.

⁴ Muolij – muolaja qiluvchi, tabib.

⁵ Nabz – qo'ldan tomir urishini ko'rish.

⁶ Urushjo⁶ – urushqoq, jangjal chiqaruvchi.

⁷ Tundxo⁷ (q) – jahil tez, o'jar.

⁸ Sahboyi junun – savdoyilik mayl.

Nigor¹ etnish nigorim poyini rangi

Ne xush nisbat: to'king yo'lig'a, ey xino birlan,
ko'zlarda qonim, sizi

Agar begonadinkim, har nafas yuz ming
jafu cheksam, Bo'lubon oshnokim, kuydurursiz ustuxonim siz.

O'tardi yor, kelmay qoldi til so'zg'a, kulub aydi:

Qalaysiz, kamnamosiz, gung-u lol-u bezabonimisiz?

O't urdim sham'dek mahfida men ham tanga
sar to po², Kuyay o'lguncha, ey nosih, qo'yimg, tutmang
inonim siz.

Navo bir gul xayolida chekarmen –
hamdamin bulbul, O'qub behuda bilmangsiz, Muqimiy, dostonim siz.

¹ Nigor – bu yerda: xino rangi.

² Sar to po (Sarapo) – boshdan oyoq.

DILRABOLAR¹

Avvalda ko'rmasam-ehi, bag'rim kabob ko'rmay,
Bir lahza sabr-u toqat yo'q ko'zda xob ko'rmay.

Tuxmi muhabbatimgi jon mazra'ig'a² sochdim,
Boqkim, ekin pisharmu to ofrob ko'rmay?

Oqsa, ne tong, sirishkim chiqqanda xatt-u xoling,
Rayhonga hech ravnaq etgaymu ob³ ko'rmay?

O't madrasa saridin – ilm ahli darsi husning
Fikrida ta'til aylab, yursun kitob ko'rmay.

Gohi karam yuzidin so'rg'ilki, to bu yanglig'
Ag'yor⁴ ta'hasidin o'q behisob ko'rmay.

Ey xo'blar amiri, sandin umid etib lutf,
Qildi g'azal Muqimiy, ketmas javob ko'rmay.

¹ Bu g'azal «Ko'rmay» va «Avvalda ko'rmasam-ehi» nomlari bilan ham iyro etiladi.

² Mazra' – ekinzor, maydon.

³ Ob – suv.

⁴ Ag'yor – begonalar, dushmankor.

⁵ Muqimiy, Furqat

0069

